



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 90 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	



INGLIZ TILI DARSLARIDA INDIVIDUAL VA PRAGMATIK YONDASHUVNI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYALARI

Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvlarni amalga oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda individuallashtirilgan ta'lim modellari, o'quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirishda pragmatik kompetensiyaning o'rni, differensial topshiriqlar tizimi hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda darslarni tashkil etish masalalari yoritilgan. Pedagogik eksperiment natijalari individual va pragmatik yondashuvning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshirishini statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: individual yondashuv, pragmatik yondashuv, kommunikativ kompetensiya, differentsiatsiya, ta'lim texnologiyalari, ingliz tili o'qitish metodikasi, o'quvchi-markazli ta'lim, pedagogik eksperiment.

Abstract: This article examines modern pedagogical technologies for implementing individualized and pragmatic approaches in English language lessons. The study analyzes personalized learning models, the role of pragmatic competence in shaping learners' language competence, differentiated task systems, and the integration of digital tools into the learning process. The results of a pedagogical experiment demonstrate that the combined use of individual and pragmatic approaches significantly increases learners' communicative competence compared to a control group taught through traditional methods.

Key words: individual approach, pragmatic approach, communicative competence, differentiation, educational technologies, English language teaching methodology, learner-centered education, pedagogical experiment.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются современные педагогические технологии реализации индивидуального и прагматического подходов на уроках английского языка. В исследовании рассматриваются модели индивидуализированного обучения, роль прагматической компетенции в формировании языковой компетентности учащихся, система дифференцированных заданий, а также вопросы организации учебного процесса с использованием современных информационно-коммуникационных технологий. Результаты педагогического эксперимента, подтвержденные статистическими данными, свидетельствуют о том, что комплексное применение индивидуального и прагматического подходов способствует значительному повышению уровня коммуникативной компетентности учащихся по сравнению с контрольной группой.

Ключевые слова: индивидуальный подход, прагматический подход, коммуникативная компетентность, дифференциация, образовательные технологии, методика преподавания английского языка, личностно-ориентированное обучение, педагогический эксперимент.

KIRISH

Globallashuv sharoitida chet tillarini, ayniqsa ingliz tilini, samarali o'zlashtirish har qanday mamlakat ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini isloh qilish, xususan, xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish borasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini jahon andozalari darajasiga yetkazishni talab etmoqda. Bunday sharoitda an'anaviy, ya'ni barcha o'quvchilarga bir xil metod va materiallarni taklif etuvchi o'qitish tizimi zamon talablariga to'liq javob bera olmayapti.

Zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika fanlari shuni ko'rsatadiki, har bir o'quvchi o'ziga xos kognitiv qobiliyat, o'rganish uslubi (learning style), motivatsiya darajasi va til bilan bog'liq ehtiyojlarga ega bo'ladi. Ushbu individual farqlarni hisobga olmasdan tashkil etilgan dars jarayoni o'quvchilarning katta qismida til o'rganishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga, natijada esa til kompetensiyasining sust rivojlanishiga olib keladi. Shu bois individual yondashuv zamonaviy ta'lim texnologiyalarining markaziy tamoyillaridan biriga aylanmoqda.

Boshqa tomondan, tilni faqat leksik-grammatik tizim sifatida o'rganish yetarli emas - til, birinchi navbatda, muloqot vositasidir. Shu sababli o'quvchilarda nafaqat lingvistik, balki pragmatik kompetensiyani, ya'ni tilni muayyan ijtimoiy-madaniy kontekstda, aniq maqsad va vaziyatga mos holda qo'llash ko'nikmasini shakllantirish zarur. Pragmatik kompetensiyaning yetishmasligi ko'pincha o'quvchilarning grammatik jihatdan to'g'ri, ammo kommunikativ jihatdan nomaqbul yoki kontekstga mos kelmaydigan gaplar tuzishiga sabab bo'ladi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, amaliyotda individual va pragmatik yondashuvlar ko'pincha bir-biridan alohida, uzoq-yuluq holda qo'llaniladi, ular orasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlovchi yaxlit metodik model deyarli ishlab chiqilmagan. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi aynan shu ikki yondashuvni integratsiyalashgan holda amalga oshirishning texnologik modelini ishlab chiqish va uni pedagogik eksperiment orqali asoslashdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi - ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvlarni birgalikda amalga oshirishning samarali texnologiyalarini ishlab chiqish, ularni sinovdan o'tkazish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- individual va pragmatik yondashuvlarning nazariy asoslarini tahlil qilish;
- ikki yondashuvni uyg'unlashtiruvchi metodik model va texnologiyalarni ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan modelni pedagogik eksperiment asosida sinovdan o'tkazish;
- eksperiment natijalarini statistik tahlil qilish va ularga tayanib amaliy tavsiyalar shakllantirish.

Tadqiqot ob'ekti sifatida umumta'lim maktabining yuqori sinf o'quvchilari, predmeti sifatida esa ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvlarni amalga oshirish jarayoni tanlab olindi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy ahamiyati shundaki, unda individual va pragmatik yondashuvlar o'rtasidagi didaktik bog'liqlik nazariy jihatdan asoslab berilgan va lingvodidaktika sohasidagi mavjud tasavvurlar boyitilgan. Amaliy ahamiyati esa ishlab chiqilgan texnologik model va metodik tavsiyalarning umumta'lim maktablari, litsey va kollejlarning ingliz tili o'qituvchilari tomonidan bevosita dars jarayonida qo'llanilishi mumkinligidir. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarining pedagogika yo'nalishlarida, malaka oshirish kurslarida va o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning gipotezasi quyidagicha shakllantirildi: agar ingliz tili darslarida individual yondashuv (differentsiatsiya, o'quv trayektoriyasi) pragmatik yondashuv (kontekstual, vaziyatli topshiriqlar) bilan uzviy bog'langan holda, yaxlit texnologik model asosida amalga oshirilsa, u holda o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi, nutqiy faolligi va o'quv motivatsiyasi an'anaviy metodika bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Individual yondashuv muammosi pedagogika fanida uzoq tarixga ega bo'lib, differensial ta'lim nazariyasining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Tadqiqotchilar o'quvchilarning kognitiv qobiliyati, o'rganish sur'ati va motivatsion xususiyatlariga qarab ta'lim jarayonini moslashtirish zarurligini asoslab berishgan^[1; 4]. Xususan, differentsiatsiyalashgan ta'lim nazariyasiga ko'ra, sinfda bir xil topshiriqni barcha o'quvchilarga berish o'rniga, har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasiga mos vazifalar tizimini yaratish tavsiya etiladi^[4].

Kommunikativ til o'qitish metodikasi nazariyotchilari tilni o'qitishning asosiy maqsadi grammatik to'g'ri-likka emas, balki muvaffaqiyatli muloqotga erishish ekanligini ta'kidlaydilar^[2; 5]. Ushbu yondashuv doirasida kommunikativ kompetensiya tushunchasi bir necha tarkibiy qismlardan iborat deb hisoblanadi: lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik kompetensiyalar. Keyingi tadqiqotlarda ushbu tarkibga pragmatik kompetensiya ham alohida komponent sifatida qo'shildi, chunki grammatik jihatdan to'g'ri bo'lgan gap muayyan vaziyatda nomaqbul yoki hatto tushunarsiz bo'lishi mumkinligi ko'rsatib o'tildi.

Pragmatika tilshunosligi nuqtai nazaridan til birliklarining kontekstga bog'liq ma'nosini, nutqiy akt nazariyasini hamda suhbatdoshlar o'rtasidagi kooperativ tamoyillarni o'rganadi. Ushbu nazariy asos chet tili o'qitish metodikasiga tatbiq etilganda, o'quvchilarga nafaqat "nima deyish kerak", balki "qanday, kimga, qachon va qanday ohangda deyish kerak" ekanligini o'rgatish zarurligini ko'rsatadi^[6].

Zamonaviy metodistlar loyihaviy ta'lim, vaziyatli-rolli o'yinlar, keys-stadi kabi interfaol usullarning pragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligini alohida ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, raqamli ta'lim texnologiyalari - moslashuvchan (adaptive) o'quv platformalari, sun'iy intellektga asoslangan til o'rganish ilovalari - individual yondashuvni amalga oshirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda, chunki ular har bir o'quvchining natijalarini real vaqt rejimida kuzatib borish va topshiriqlarni avtomatik moslashtirish imkonini beradi^[3].

O'zbek metodistlarining tadqiqotlarida ham chet tili o'qitishda o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati alohida ta'kidlanadi^[1; 10]. Milliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil qilish va real muloqot vaziyatlarida tilni erkin qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa individual va pragmatik yondashuvlarning milliy ta'lim standartlariga muvofiqligini yana bir bor tasdiqlaydi^[1; 10].



Shuningdek, so'nggi yillarda o'tkazilgan qator xorijiy tadqiqotlarda sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'quv tizimlarining individuallashtirilgan ta'limni ta'minlashdagi salohiyati ko'rsatib o'tilgan. Bunday tizimlar o'quvchining har bir javobini tahlil qilib, keyingi topshiriqning qiyinlik darajasini avtomatik ravishda moslashtirish imkonini beradi [6]. Biroq tadqiqotchilar shuni ham ta'kidlaydilarki, texnologik vositalarning o'zi yetarli emas - ular pedagogik jihatdan puxta o'ylangan, pragmatik jihatdan asoslangan topshiriqlar tizimi bilan birga qo'llanilgan-dagina samara beradi.

Shunday qilib, o'tkazilgan tahlil individual va pragmatik yondashuvlarning nazariy jihatdan bir-birini to'ldirishini, ammo amaliyotda ularni uyg'unlashtirishga qaratilgan yaxlit texnologik modelning yetishmasligini ko'rsatadi. Aynan shu bo'shliq ushbu tadqiqotning predmetini belgilaydi [1; 2; 7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dizayni

Tadqiqot pedagogik eksperiment metodiga asoslangan bo'lib, u aniqlovchi (konstatatsion), shakllantiruvchi va nazorat bosqichlarini o'z ichiga oldi. Tadqiqot kvazi-eksperimental dizaynda, tajriba va nazorat guruhlarida ishtirokida amalga oshirildi.

Ishtirokchilar

Tadqiqotda umumiy o'rta ta'lim maktabining 9-sinf o'quvchilari, jami 60 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular ikki guruhga bo'lindi: tajriba guruhi (30 nafar) - individual-pragmatik integratsiyalashgan model asosida, nazorat guruhi (30 nafar) - an'anaviy metodika asosida ta'lim oldi. Guruhlar boshlang'ich til darajasi bo'yicha taqqoslanadigan (statistik jihatdan bir-biriga yaqin) tarkibda shakllantirildi.

Tadqiqot vositalari

Tadqiqot jarayonida quyidagi vositalardan foydalanildi:

1. Boshlang'ich va yakuniy diagnostik testlar (til bilimi va nutqiy ko'nikmalarni baholash uchun);
2. Kuzatuv varaqalari (o'quvchilarning dars jarayonidagi nutqiy faolligini qayd etish uchun);
3. So'rovnoma (o'quvchilarning motivatsiya darajasini aniqlash uchun);
4. Ekspert baholash (o'qituvchilar tomonidan nutqiy vazifalarni bajarish sifatini baholash).

Tadqiqot jarayoni

Tajriba guruhida darslar quyidagi bosqichlar asosida tashkil etildi: birinchi bosqichda diagnostik testlash orqali har bir o'quvchining til darajasi aniqlandi va shu asosda uch darajali (boshlang'ich, o'rta, yuqori) differensial topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda har bir mavzu bo'yicha pragmatik vaziyatlar (masalan, restoranda buyurtma berish, intervyu berish, shikoyat bildirish) loyihalashtirilib, ular differentsiatsiya darajalariga moslashtirildi. Uchinchi bosqichda raqamli platformalar (interaktiv mashqlar, video-materiallar) yordamida mustaqil ish tashkil etildi. To'rtinchi bosqichda esa har bir o'quvchiga individual fikr-mulohaza (feedback) berildi va portfolio yuritildi. Nazorat guruhida esa darslar an'anaviy sxema - barcha o'quvchilar uchun bir xil matn, mashq va topshiriqlar asosida olib borildi.

Eksperiment 12 hafta davomida, haftasiga 3 soatdan olib borildi. Eksperiment yakunida ikkala guruhda ham bir xil yakuniy test va nutqiy vazifalar o'tkazildi, natijalar statistik jihatdan taqqoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eksperiment boshida ikkala guruh o'rtasida til bilimi darajasi bo'yicha sezilarli farq kuzatilmadi (1-jadval). Ammo 12 haftalik ta'lim jarayonidan so'ng tajriba guruhida yakuniy test natijalari nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'ldi (1-jadval).

1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarining test natijalari

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi (n=30)	Nazorat guruhi (n=30)	Farq (%)
Boshlang'ich test (o'rtacha ball, 100 balldan)	54,2	53,8	0,4
Yakuniy test (o'rtacha ball, 100 balldan)	78,6	62,1	16,5
O'sish dinamikasi	+24,4	+8,3	+16,1
Nutqiy faollik indeksi (1–10 shkala)	8,1	6,0	2,1
O'quv motivatsiyasi darajasi (1-10 shkala)	8,4	6,3	2,1



Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida o'rtacha ball 24,4 foizga, nazorat guruhida esa atigi 8,3 foizga oshgan. Bu farq 16,1 foizni tashkil etib, statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi ($p < 0,05$). Shuningdek, nutqiy faollik indeksi va o'quv motivatsiyasi darajasi bo'yicha ham tajriba guruhi nazorat guruhidan ustun natija ko'rsatdi.

Kuzatuv natijalariga ko'ra, tajriba guruhi o'quvchilari nutqiy vazifalarni bajarishda kontekstga mosroq, pragmatik jihatdan to'g'ri iboralarni ko'proq qo'llashgan. Xususan, so'rov, minnatdorchilik, uzr so'rash kabi nutqiy aktlarni ijro etishda tajriba guruhi o'quvchilarining 82 foizi mos registri (rasmiy/norasmiy) to'g'ri tanlagan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 54 foizni tashkil etdi.

So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilarining 87 foizi darslarni "qiziqarli va foydali" deb baholagan, nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 61 foizni tashkil etdi. Bu individuallashtirilgan va pragmatik yo'naltirilgan topshiriqlarning o'quvchilar motivatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval: An'anaviy va individual-pragmatik modelning qiyosiy tavsifi

Mezon	An'anaviy yondashuv	Individual-pragmatik model
Topshiriqlar xarakteri	Barcha o'quvchilar uchun bir xil	Daraja va ehtiyojga mos differensiallashgan
Til materialining berilishi	Ko'proq nazariy-grammatik	Kontekstual, real vaziyatlarga asoslangan
O'qituvchi roli	Bilim uzatuvchi	Facilitator va maslahatchi
Baholash tizimi	Yakuniy test asosida	Portfolio va formativ baholash asosida
Texnologiyalardan foydalanish	Cheklangan	Keng qamrovli (raqamli platformalar)

Olingan natijalar individual va pragmatik yondashuvlarni uyg'unlashtirilgan holda qo'llash chet tili o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligini tasdiqlaydi. Bu natija adabiyotlar tahlilida keltirilgan nazariy xulosalar bilan mos keladi: differensiatsiya o'quvchilarning kognitiv yukini optimallashtirsa, pragmatik yo'naltirilgan vazifalar til bilimini real muloqot ko'nikmasiga aylantirishga xizmat qiladi.

Ayniqsa, e'tiborga molik jihat shundaki, tajriba guruhida nafaqat test ballari, balki nutqiy faollik va motivatsiya ko'rsatkichlari ham sezilarli o'sdi. Bu shuni ko'rsatadiki, individual-pragmatik model faqat bilim darajasiga emas, balki o'quvchining ta'lim jarayoniga hissiy-psixologik munosabatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, o'quvchi-markazli ta'lim paradigmasining asosiy tamoyillarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida bir qator qiyinchiliklar ham aniqlandi. Xususan, differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqish o'qituvchidan katta vaqt va metodik tayyorgarlik talab etadi. Bundan tashqari, katta sonli sinflarda (30 va undan ortiq o'quvchi) har bir o'quvchiga individual yondashishni to'liq ta'minlash amaliy jihatdan murakkab bo'lishi mumkin. Shu sababli raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan baholash vositalaridan foydalanish o'qituvchining ish yukini yengillashtirishning muhim vositasi sifatida tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalarini boshqa tadqiqotchilarning ishlari bilan solishtirganda, umumiy tendensiya mos kelishi kuzatildi: differensiatsiya va kontekstga asoslangan o'qitish kommunikativ kompetensiyani oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Ammo ushbu tadqiqotning o'ziga xosligi shundaki, u ikki yondashuvni alohida emas, balki bitta yaxlit texnologik model doirasida integratsiyalashgan holda sinovdan o'tkazdi, bu esa mavjud adabiyotlarda kam yoritilgan yo'nalish hisoblanadi.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida namunaning nisbatan kichik hajmi (60 nafar o'quvchi) va eksperimentning bitta maktab doirasida o'tkazilganligini ko'rsatish mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda namuna hajmini kengaytirish, turli ta'lim muassasalari va yosh guruhlarida sinovdan o'tkazish natijalarning umumlashtirilishini ta'minlashi mumkin.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandi: individual-pragmatik modelning samaradorligi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va ijodiy yondashuviga bevosita bog'liq. Agar o'qituvchi differensial topshiriqlarni sifatsiz tayyorlasa yoki pragmatik vaziyatlarni sun'iy, hayotiy bo'lmagan tarzda taqdim etsa, modelning samaradorligi pasayishi mumkin. Shu sababli modelni joriy etishdan oldin o'qituvchilar uchun maxsus metodik tayyorgarlik bosqichini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, tadqiqot davomida o'quvchilarning yosh xususiyatlari va til darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ham kuzatildi. Yuqori boshlang'ich til darajasiga ega o'quvchilarda pragmatik vazifalarning samaradorligi yanada yuqori bo'lgan, chunki ular murakkabroq kommunikativ vaziyatlarni tushunish va ularda ishtirok etish uchun yetarli lingvistik zaxiraga ega edilar. Boshlang'ich darajadagi o'quvchilar uchun esa soddalashtirilgan, ammo baribir real kontekstga asoslangan vazifalar ishlab chiqish zarurati aniqlandi. Bu topilma differensiatsiya va pragmatik yo'naltirilganlikni bir vaqtning o'zida ta'minlashning murakkabligini, ammo shu bilan birga uning naqadar muhimligini ko'rsatadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvlarni uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning eng samarali yo'llaridan biri ekanligini tasdiqladi. Diagnostik baholash, differentsiatsiya, kontekstual-pragmatik vazifalar va zamonaviy raqamli vositalarni birgalikda qo'llash o'quvchilarga nafaqat tilni nazariy jihatdan o'zlashtirish, balki uni real hayotiy vaziyatlarda erkin va samarali qo'llash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Har bir o'quv mavzusi boshida qisqa diagnostik baholash o'tkazib, o'quvchilarni daraja bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi;
2. Topshiriqlar tizimini kamida uch darajali (boshlang'ich, o'rta, yuqori) qilib loyihalashtirish maqsadga muvofiq;
3. Har bir grammatik yoki leksik mavzuni muayyan pragmatik vaziyat (nutqiy akt) bilan bog'lagan holda taqdim etish zarur;
4. Vaziyatli-rolli o'yinlar, keys-stadi va loyihaviy topshiriqlardan tizimli ravishda foydalanish tavsiya etiladi;
5. O'quvchilar natijalarini kuzatish va individual fikr-mulohaza berish uchun raqamli platformalar va portfolio usulini joriy etish lozim;
6. O'qituvchilar uchun individual-pragmatik modelni qo'llash bo'yicha maxsus metodik qo'llanmalar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, individual va pragmatik yondashuvlarning integratsiyasi shunchaki metodik usullar yig'indisi emas, balki o'quvchi shaxsini markazga qo'yuvchi va tilni funksional muloqot vositasi sifatida o'rgatuvchi yaxlit pedagogik falsafa hisoblanadi. Ushbu modelni keng amaliyotga tatbiq etish ingliz tili o'qitish sifatini tubdan yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: O'qituvchi, 2012.
2. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. - Cambridge University Press, 2014.
3. Yule G. Pragmatics. - Oxford University Press, 2017.
4. Tomlinson C.A. How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms. - ASCD, 2017.
5. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. - Pearson Education, 2015.
6. Leech G. Principles of Pragmatics. - Longman, 1983.
7. Nunan D. Task-Based Language Teaching. - Cambridge University Press, 2004.
8. Larsen-Freeman D. Techniques and Principles in Language Teaching. - Oxford University Press, 2011.
9. Hymes D. On Communicative Competence. - University of Pennsylvania Press, 1972.
10. Umumta'lim maktablarida ingliz tili o'qitish davlat ta'lim standarti. - Toshkent, 2021.
11. Азимов Э.Г., Щукин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий. - Москва: ИКАР, 2009.
12. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. - Москва: Просвещение, 1991.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.